

TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 1/2024
ilmiy uslubiy jurnal*



Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz.

Farzandlarimizni harto monlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiy parvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar merosini o'rGANISHGA bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi" dan

BOSH MUHARRIR**Shavkat Safarovich Sharipov –**

pedagogika f.d., professor

MUHARRIR O'RINBOSARI**Farrux Aqchayev –** tarix f.f.d.,

dotsent

MAS'UL KOTIB**Abdug'affor Abdurahmonov –** tarix

f.b.f.d. PhD

TARJIMONLAR:**Zubayda Jumayeva**-filologiya

f.b.f.d., dotsent (rus tili bo'yicha)

Eldar Hasanov-filologiya

f.b.f.d. (rus tili bo'yicha)

Anora Jabborova -filologiya

f.b.f.d., (ingliz tili bo'yicha)

Dildora Baxriddinova - katta

o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha)

Musahhihlar**Feruza Jumayeva**- filologiya f.b.f.d.

dotsent.

Murodulla Jo'rayev-

filologiya f.b.f.d.

SAHIFALOVCHI**Zarina Abdusattorova**

Muassis - Jizzax davlat
pedagogika universiteti
Jurnal yilda 4 marta
(har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos
va ma'lumotlар aniqligi uchun
mualliflar mas'ulidirlar.

Jurnaldan ko'chirib olinganda,
manba qayd etilishi shart.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Anatoliy Sagdullayev, tarix f.d., akademik

Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik

Andrey Zuyev, Novosibir DU Guumanitar instituti professori, tarix f.d. (Rossiya)

Stiven Korbet, Portsmud universiteti, Tilla va amaliy tilshunoslik yo'naliishi professori (Buyuk Britaniya)

Seyko Wazake, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)

Donina Lyudmila, Sank-Peterburg DU dotsenti, filologiya f.n. (Rossiya)

Jakelin Duglas, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)

Himmet Karadal, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)

Tuba Yilmaz, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)

G'ayrat Qodirov, biologiya f.n., dotsent

Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent

Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d., dotsent

Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor

Usmonjon Qosimov, filologiya f.d., professor

Abdug'affor Mamatov, filologiya f.d., professor

Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor

Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor

Baxti Ochilova, falsafa f.d., professor

Hamid Meliyev, pedagogika f.n., professor

Xudobergan Mavlonoval, biologiya f.d., dotsent

Qo'chqor Hakimov, geografiya f.n., professor v.b.

Mo'min Hoshimxonov, falsafa va filologiya f.d.

Furqat Axmedov, pedagogika f.n., professor

Akbar Saitkasimov, falsafa f.d., professor

Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor

Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor

Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent

Marat Sultonov, kimyo f.d., professor

Raximboy Yarmatov, pedagogika f.d., dotsent

Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent

Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent

Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent

Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent

Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent

Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent

Kamoliddin Zoirov, pedagogika f.n., dotsent

Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f.d., dotsent

Feruza Jumayeva, filologiya f.b.f.d., dotsent

Bobomurod Toshboyev, falsafa f.b.f.d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrdagi 260/6-son bayonnomasi)
tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042
raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino
TELEFON: (99872) 226 02 93,
(99897) 644 84 44
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**MATBAA BO'LIMI**

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy

2024-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Sh.S.Sharipov, S.T.Yaxshiliqov Oliy ta'limga sur'iy intellektni joriy etish zaruriyati: tarixiy asoslar va zamonaviy tendensiyalar.....	4
--	---

TAQVIM:

U.Qosimov, D.Elmuradov Tilimiz va adabiyotimizning benazir yalovbardori.....	7
---	---

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Sh.S.Sharipov, V.Q.Raxmonova Uzluksiz ta'lim tizimida uzyviylikni ta'minlashning pedagogik muammolari	10
--	----

X.R.Sanakulov, G.O.Abduraimova, Sh.Y.Ishmetova Boshlang'ich ta'limda "STEAM – ta'limi" yondashuvi asosida "texnologiya" fanini o'qitishning asosiy pedagogik tamoyillari	13
---	----

X.A.Meliyev, R.X.Bo'Itakova, Sh.B.Qosimova Oliy ta'limda STEAM ta'lim tizimini tashkil etish va uning imkoniyatlari	19
--	----

M.X.Shomirzayev Oliy o'quv yurtlari talabalarida texnologik kompetentlikni rivojlantirishning klasterli modeli	21
---	----

R.T.Umarov, J.B.Orishev Mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari.....	25
--	----

A.B.Musoyeva Tadqiqot kompetensiyasini oshirish bo'yicha AQShda orttirilgan tajriba va uni amaliyotga joriy etish	28
--	----

U.S.Musayev Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarining innovatsion tomonlari: qiyosiy tahlil.....	32
---	----

L.A.Xalmamatova Pedagogik texnologiyani loyihalashtirish va rejalashtirish yo'llari.....	36
---	----

A.J.Usmanov Axborot texnologiyalariga oid bilimlarga asoslangan ta'lim raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omilidir	39
---	----

A.M.Mirzaakbarov IQ (intelligence quotient) masalalarini yechishga o'rgatish orqali bo'lajak o'qituvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	43
--	----

AMALIY FANLAR

I.Jumaniyazov Baxshi va jirovlarning asosiy cholg'u asboblari	46
--	----

N.O.Berdiyev Bo'lajak arxitektor va dizaynerlar faoliyatida grafik tasvirlashning o'rni va ahamiyati	48
---	----

S.R.Xalikov Yashil instituti tuzilmasini yaratgan, ekologik toza va barqaror arxitektura loyihalari asoschisi Kisho Kurokava hayoti va ijodi.....	53
--	----

B.E.Qodirov Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mustaqil ta'limini tashkil etish imkoniyatlari.....	57
---	----

K.T.Мухамедзиянов О вокальном цикле "сюзане" композитора Г. Мушеля на стихи узбекской поэтессы Зульфии Исраиловой	60
--	----

E.Z.Nurmatov Talabalarni ommaviy jismoniy tarbiya va sportga jalb etish mexanizmlarini xorij tajribalari asosida takomillashtirish	63
---	----

IJTIMOY FANLAR

A.Saitkasimov, A.Idiboyev Yangi O'zbekistonda inson manfaatlari va qadr-qimmati ustuvorligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	68
---	----

T.M.Burxanov Harbiy-kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishda bo'lajak ofitserlarda Vatan ravnaqi g'oyasini shakllantirishning o'rni	71
---	----

Ф.А.Ахмедшина Халяль туризм: новая концепция туристского бизнеса в мире и Узбекистане	76
--	----

A.X.Amonlayev Ibrat kategoriyasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili	80
--	----

X.E.Boboqulova Falsafiy dunyoqarash dunyoqarashning eng yuqori turi sifatidagi mantiqiy tushuncha ..	83
---	----

A.Boltayev Sovet tuzumi davrida O'zbekistonda sud tizimning shakllanishi va rivojlanish tarixi	88
---	----

D.U.Jumanazarova Axloqiy madaniyat va shaxs ma'naviyati tushunchalarining ijtimoiy-pedagogik tavfsifi	91
--	----

Z.A.Bozorboyeva Demografik o'zgarishlar va ijtimoiy-iqtisodiy-ekologik muammolar o'ttasidagi o'zaro bog'liqlik tamoyillari	94
---	----

B.S.Turdiyev Jamiyat ideosferasida milliylik va umuminsoniylik dialektikasi	98
--	----

R.R.Nurqulova Muhammad Shayboniyxon	102
--	-----

S.U.Kistaubayev Amaliyot va texnologiya darslarida bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ekologik bilimlarini oshirish usullari	106
--	-----



FILOLOGIYA FANLARI

F.R.Ravshanov Shoh Hakim Xolis Toshkandiy	109
A.C.Мусаев О качестве переводов русских слов и фразеологизмов на узбекский язык.....	113
N. D. Hasanov Masnaviy va Mabdal nur	115
G'.O.Xolbutayev Kulgiga asoslangan folklor janrlarning o'rganilishi	120
X.Xolmurodov, U.Mustanov Alisher Navoiy she'riyatida ishqiy obrazlar muvoziyligi.....	123
N.Q.Bo'riyeva J.R.R.Tolkin asarlarining zamonaviy intertekstda aks etishi.....	126
A.L.Kenjayev A.S.Pushkinnin "... ga" she'ri tahlili.....	130
З.Ш.Жумаева Структурно-семантические типы фразеологизмов	133
J.A.Lutfullayev "Mungli ko'zlar" romanining mavzu ko'lami va tasvir uslubi	135
D.E.Kariyeva Teaching english vocabulary to students of economic universities.....	140

TABIIY VA ANIQ FANLAR

G.I.Sayfullayeva., M.H.Norqulova Astronomiya darslarining samaradorligini oshirishda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish	144
M.R.G'o'dalov, N.D.Qosimov Sangzor havzasida tarqalgan tuproq turlari va ularning xususiyatlari	148
F.P.Raxmonkulov O'quv jarayonini tashkil etishda onlayn xizmatlardan foydalanish.....	151
P.P.Кучкарова Кольчато -цепных перегруппировках лигандов при комплексообразовании с ионами переходных металлов	154
F.Q.Tugalov Fizika va biologiya fanlari integratsiyasi	158
S.S.Alikulov Maktab fizika kursida robototexnika asoslарини о'rganish	160
H.T.To'rayeva Organik kimyonni klaster usulida o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	164

YOSH TADQIQOTCHILAR

O'.H.Mavlonova Xushmuomalalik me'yirlari va urfga kirgan odatlar.....	169
X.A.Uzmanova O'zbek she'riyatida ramzlar tasnifi.....	176
K.X.Abduvaliyeva Kimyoviy masalalar yechish usullaridan foydalanishning ahamiyati.....	180
Sh.R.Bobobekov Kiberhujum va uning salbiy ta'sirlarini oldini olish yo'llari.....	183
Sh.A.Jo'rayev Erkin Vohidov so'z olami va ijod saboglari	188
G.B.Nafasova Praxeological approach to development of logical competence of future physics teachers.....	191
M.B.Qodirova Hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zlarning ingliz tiliga tarjimasi xususida	195
Sh.N.Avazbekova O'quvchilarda zamonaviy integrativ metodlar asosida ilmiy xabardorlik kompetensiyasini rivojlantirish.....	199
A.А.Якунина Проблема определения термина концепт в современной лингвистике	202
М.Ш.Яхшиева Занятий аэробикой и её всестороннее влияние на организм студенток	207
F.X.Dadaboyeva O'quvchilarga ingliz tilini o'qitish jarayonida og'zaki nutqni shakllantirishning nazariy asoslari xususida	211
R.I.Rasulova Ekologik ta'liming samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	216
Y.A.Ismatillayeva Ekologik tarbiyaga oid tarixiy materiallardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.....	219
О.Ф.Ахмедов Формирование межнациональной культуры в начальных классах.....	223
M.Sh.Shotirova Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishda tarbiya fanining o'rni	227
G.X.Norbekova Afsun va unga oid birliklarning madaniyatlar kesishuvidagi o'rni.....	231
Sh.T.Mirzamatova O'quvchilar shaxsiyatining psixologik xususiyatlari orqali kimyo fani bo'yicha bilimlarni optimallashtirish	235
Z.Yulchiyeva Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida ta'limi o'yinlardan foydalanish....	237



JAMIYAT IDEOSFERIDA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK DIALEKTIKASI

Bexruz Sobirovich Turdiyev – dotsent, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat ideoferasi rivojida insoniyatning ming yillar mobaynida qadrlanib kelingan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro dialektik aloqadorligi falsafiy tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье философски анализируется диалектическая взаимосвязь национальных и общечеловеческих ценностей, ценившихся нашим народом на протяжении тысячелетий, в развитии идеосферы общества.

Abstract: This article philosophically analyzes the dialectical interrelation of national and universal values, valued by our people for thousands of years, in the development of society's ideosphere.

Kalit so'zlar: qadriyat, integratsiya, tafakkur, stereotip, sivilizatsiya, madaniyat, ma'rifat.

Ключевые слова: ценность, интеграция, мышление, стереотип, цивилизация, культура, просвещение.

Keywords: value, integration, thinking, stereotype, civilization, culture, enlightenment.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, milliy o'zlikni anglash, mazmun mohiyatiga ko'ra, jamiyat ideoferasi tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini taqozo etadi. Bugun o'zbek xalqining milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamohangligini rivojlantirish sohasida keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Turli madaniyatlarning o'zaro aloqasi va bir-biridan o'zaro bahramand bo'lishi imkoniyatlari yuzaga kelib, milliy tiklanishdan milliy yuksalish jarayonida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy strategik islohotlar jarayonida ma'naviy qiyofasi yangilanib, yuksalib borishimizga harakatlantiruvchi kuch vazifasini o'tab kelmoqda.

Hozirgi integratsiyalashuv jarayoni insoniyat oldida yangi bir davrni boshlab berar ekan, bu davr jahon ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlari mutassil o'zgarayotgan va inson tafakkuri yangilanib borayotgan, manfaatlar umumiyligi yuz berayotgan jarayonni boshdan kechirmoqda. Bu integratsiyalashuv jarayonida jahon ideoferasining takomillashuvi faqatgina bir xalq, mamlakatning o'z hududi doirasi bilan cheklanib qolmay, balki hozirgi jarayonda dunyo mamlakatlarini o'zaro manfaatlar mushtarakligini taqozo etmoqda. Har qanday mamlakatda vujudga kelayotgan muammo ham barcha xalqlar uchun tegishlilikni anglatib, umuminsoniy mohiyat kasbetmoqda. Shunday keskin va shiddatli bir jarayonda insonning milliylik va umuminsoniylikka bo'lgan ehtiyoji ortib boradi.

Mamlakatimizda jamiyat ideoferasi yangilanish jarayonlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro dialektik aloqadorligi, ma'naviy islohotlarning tub mohiyatini ochib berishga doir qarashlar

M.Quronov, N.Jo'rayev, Q.Nazarov, I.Ergashev, N.Shermuhamedova, A.Erkayev, S.Otamurotovlarning izlanishlarida demokratik taraqqiyot va ma'naviy rivojlanishning aloqadorligiga oid fikr-mulohazalar F.X.Yuldasheva, M.Q.Normurotova, R.I.Norliyev, R.R.Ro'ziyeva, H.A.Axmedov kabi tadqiqotchilar ilmiy ishlarida kuzatiladi.

Mazkur maqolani yozishda analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Bugungi kunda aynan ana shu voqeylek yuz yillik mohiyatini anglaydigan omilga aylanmoqda. Ijtimoiy falsafa, siyosiy tafakkur, barqarorlik va beqarorlik singari g'oyalari rivojlanganligi sari insoniyat turli muammolar girdobiga tushib qolmoqda. Natijada, turli millat va xalqlar bir-biridan ayro holda emas, bir-biri bilan hamkorlikda yashashi kerakligini tushunib yetmoqda. Ushbu anglash jarayonida esa, turli millat va xalqlar orasida umuminsoniy qadriyat va madaniyat ahamiyatining oshib, umuminsoniylik ideoferasining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Beqarorlikdan barqarorlikka, xususiylikdan umumiylikka o'tish zarurat ekanligi tobora kengroq ko'zga tashlanmoqda. Ushbu jarayonda jamiyat hayotidagi gomogenlashuv, ya'ni xalqlar va millatlarning milliy g'oyasi, ma'naviyati, madaniyati va turmush tarzi orgali o'zaro yaqinlashish jarayonlari keskin jadallahшиб bormoqda.

Madaniyatlararo yaqinlashuv birinchidan, jahon xalqlari o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish, o'zaro hurmatda bo'lish darajasining ortishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan xalqlarning o'z milliy ideoferasi, qadriyat va urf-odatlarini zo'r berib himoya qilishi esa,

insonga xuddi millatchilik, shovinism va ratsizm kabi holatdek tuyuladi. Milliy ideosfera takomil bosqichi esa, millatchilik va irqchilik singari illatlar bilan kelisha olmaydi. Millatchilik ma'naviy qashshoqlik belgisi, milliy ongning nurashidir. Millatchilik, nafaqt o'zga millat vakillariga, qolaversa, o'z millati taraqqiyotiga bolta urishdir. Demak, o'zga millat manfaatlарини rad etish, ularning qadriyatini mensimaslik, ularни kamsitish hisoblanib, ijtimoiy adovat tug'diradigan salbiy illatdir. Shu ma'noda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev millatlararo totuvlikni "Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dingga mansub insonlar o'tasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz buniyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda"¹, – deb alohida ta'kidlaydi.

Bugungi integratsiyalashuv jarayonida milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligini jamiyat ideosferasida faqat o'zaro sog'lom muloqot, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat qilish madaniyati bilan saqlab qolishi mumkin. Aynan mazkur muloqot bir-birini tushunish va hurmat qilish madaniyati milliylikning umuminsoniylik bilan uyg'unlashuviga aylantiradigan g'oyatda murakkab va ayni paytda ijtimoiy zaruratga aylangan tarixiy-falsafiy hodisadir.

Afsuski, davlatlar ideosferasidagi turli kelishmovchiliklar asosida yuzaga kelayotgan o'zaro urushlar, milliylik va umuminsoniylikning aloqadorligini yana ham dolzarb qilib qo'ymoqda. Bu dolzarblik esa, o'z navbatida, buniyodkor ideosferaga bo'lgan ehtiyoja tayanadiki, milliy va umuminsoniy g'oyalalar bor joyda barqarorlik, o'zaro ruhan va qalban yaqinlik, tinchlikparvarlik va buniyodkorlik tuyg'ulari shakllanadi. Demak, o'zaro dialektik bog'liqlik bu jahon madaniyatlararo tinchlik va barqarorlik, insonparvarlik va yuksalish sari yo'ldir. O'zaro bir-biriga nisbatan hurmat, bir-biriga bo'lgan ishonch orgali umuminsoniy g'oya yuksalishiga olib keladi.

Integratsiyalashgan davr talabi nuqtai nazardan har qanday millat va xalqlarning milliy g'oyasi jahondagi turli millat va xalqlarning umuminsoniy g'oyasi bilan ochiq muloqot ornatishga qodir bo'lishi lozim. Xuddi ana shu ochiq muloqot jarayonida ma'lum bir qadriyatlar tizimi ikkinchi bir qadriyat va madaniyatlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazib, uning rivojlanishiga xizmat qiladi. Chunki faqat milliy ideosferaga o'ralib qolish, har qanday madaniyatga teskari munosabatda bo'lish ojizlik va stereotiplikdir. Bu innovatsion

yuksalishlardan ortda qolishga sabab bo'lishi mumkin. Boshqa xalqlar ideosferasiga mutlaq singib ketish esa, milliylikning tanazzulga yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Ana shunday keskin va murakkab jarayonda ideosferada o'zaro ta'sir va qabul qilish tuyg'usi me'yorida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Agar turli millat va xalqlar kuchli rivojlangan davlatlardan o'zini madaniyatini ustun qo'yib, faqat o'zining milliy an'ana va qadriyatlariga tayansa milliy mahdudlikka yuz tutsa, jahon madaniyatiga, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlariga keragidan ortiqcha ko'r-ko'rона ergashishi undan ham og'irroq bo'hronlarga sabab bo'lishi mumkin. Demak, har qanday ideosfradagi ta'sir chegaralarini anglash, tahdidlardan o'zini-ovi himoya qilish omillarini to'g'ri tanlay olishi muhim ahamiyatga ega.

Madaniyatlararo integratsiya jahon ideosferasini yangilashga, inson salohiyatini boyitishga, uning madaniy saviyasini yuksaltirishga xizmat qiladigan ijtimoiy-faslafiy, tarixiy jarayondir. Bugun O'zbekiston ham jahon madaniyati yutuqlaridan chetga qolishi mumkin emas. Aksincha, jahon madaniyati taraqqiyot yo'lidan uyg'unlikda borishi, uning ilg'or yutuqlaridan foydalanishi, o'z navbatida esa, o'zining madaniy yutuqlari bilan zamonaviy sivilizatsiyaga hissa qo'shishi davr talabidir. Ammo bu asnoda, milliy ma'naviyatimizga, mentalitetimizga, qadriyatlarimizga zid bo'lgan madaniyatni olib kirish kerak degan fikrga bormasligimiz lozim.

Bunda bir mamlakat ideosferasini boshqasiga teskari qo'yish yoki biri chegarasida ikkinchisini ijodiy o'zlashtirishdan chetda turish ma'nosida tushunilishi kerak emas, albatta. Juhon xalqlaridan qaysi xalq umuminsoniy madaniyat rivojiga salmoqli hissa qo'shgan bo'lsa, uni ijodiy o'zlashtirish lozim. Biroq, o'zligini unutish o'zgani to'g'ri tushunishga yo'l ochmaydi. Aksincha, ilmda bir yoqlamalikni keltirib chiqaradi.

Jamiyat ideosferada milliylikning o'ziga xosligi bu millatning milliy xususiyatlari, uning qiyofasi va asrlar bag'ridan yetib kelgan qadriyatlarda namoyon bo'ladi. Milliylik mohiyatida asrlar osha yetib kelgan, o'zida o'tmis natija va yutuqlarini aks etgan, ayni integratsiyalashuv darida madaniy tajribalar asosida yuksalib borayotgan, o'zining yangi ijobjiy jihatlarini namoyon etayotgan jarayon nazarda tutiladi. Bu jarayon, avvalo, milliy ong, milliy tafakkur, milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq bo'lgan obyektiv voqelikdir. Ushbu vogelik har bir millat va xalqning milliy yuksalganlik darajasi yoxud mazkur millat yoki xalqning sivilizatsiyalashganligini ko'rsatuvchi omildir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25-yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdag'i nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 24-yanvar 2017-yil.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi integratsiyalashuv jarayonining quyidagi ijobi va salbiy jihatlari ko'zga yaqqol tashlanmoqda:

Birinchidan, yuksak ma'nnaviy taraqqiy etgan millat va xalqlarning madaniyatini ma'lum bir millat va xalqlarning madaniy rivojlanishiga, ularning yuksalishiga va jahon madaniyatidan bahramand bo'lishiga yordam bermoqda. Bu esa, rivojlanayotgan millat va xalqlarning milliy madaniy zaruriyatidan kelib chiqib, jahon umuminsoniy ma'nnaviy yutuqlariga intilish orqali uning eng ijobiyligi, ilg'or tomonlarini qabul qilib, salbiy jihatlarini qabul qilmaslik singari hayotbaxsh ideosferani, zamонавијадан маданият ва ма'rifat yutuqlarini taqozo etadi.

Ikkinchidan, ba'zi bir taraqqiy etgan xalqlarning madaniyatini kichik xalqlar madaniyatini yutib yubormoqda. O'zining madaniy ta'siri jarayonida kichik xalqlarning milliy o'ziga xosligi, an'ana, urf-odat va turmush tarzining, hattoki milliy tilining yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar jahon taraqqiyotida o'zining munosib o'rnnini egallashga jahon svilizatsiyasiga ko'r-korona ergashishi mumkin. Bu esa, ushbu millat yoki xalqning necha asrlar davomida shakllangan o'ziga xos xususiyatlarga ta'sir etib, uni g'oyaviy bo'hronga yuz tutishiga sabab bo'lishi mumkin.

To'rtinchidan, umuminsoniy g'oya barcha xalq va millat vakillariga mansub bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan qadriyat, urf-odat, an'analar, maqsadlar, g'oyalar, shu asosda amalga oshiriladigan harakat va faoliyat hisoblanib, undan samarali foydalanish umumbashariy muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Jumladan, insonning sihat-salomatligi, uning huquq va erkinliklari, mamlakatlarning xalqaro hamkorligi, ekologik va energetik muammolar, umuminsoniy boy tarixiy meros, umuminsoniy qadriyatlar, hozirgi dunyoning globallashuvi, o'zaro bog'liqligi va boshqa masalalar shular jumlasidandir.

Jahon taraqqiyotining hozirgi integratsiyalashuv jarayonida, bir tomonidan, milliy g'oya, ikkinchi tomonidan esa umuminsoniy g'oyaning ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Faylasuf Matbua Ahmedova tadqiq etishicha, milliy (yagona sifatida), mintaqaviy (alohida sifatida), umuminsoniy (umumiyligi, yalpi) qadriyatlar dialektikasini hisobga olgan holda yoshlarni milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlarga, milliy til va san'atga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Agar inson o'z xalqining milliy madaniyatini, tarixini, ma'nnaviy qadriyatlarini yaxshi bilsa va qabul qilsa, u holda u dunyodagi boshqa xalqlarning

madaniyati va falsafasini ham yaxshi qabul qiladi, ular haqida o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi, deb ishonish mumkin².

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda milliylik va umuminsoniylik dialektikasi masalasida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, umuminsoniy g'oya, ma'nnaviyat va madaniyatlar uyg'unligini tan olgan holda milliy madaniyatimiz, tariximiz, tilimiz, milliy qadriyatlarimizni boyitish, ularni milliy tiklanishdan milliy yuksalishimiz sari yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini oshirish, milliy o'zlikni anglashni yuksaltirib, jamiyatning ma'nnaviy yangilanishini ta'minlash;

Ikkinchidan, mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, qadriyat va urf-odatlarini rivojlantirish, ularga yaratib berilgan imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratishda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish;

Uchinchidan, xalq roziligi, innovatsion taraqqiyotga xizmat qiladigan, yangicha fikrlaydigan, erkin fikrlaydigan, milliy va umuminsoniylik ruhida yosh avlodni tarbiyalash;

To'rtinchidan, fan-texnika, innovatsiya, ta'lim va tarbiya, madaniyat va san'at, jismonan va ma'nana sog'lom avlodni voyaga yetkazish chora-tadbirlarida yuksak natijalarga erishish;

Beshinchidan, intellektual mulkning barcha turlarini rivojlantirish, insonlarning intellektual salohiyatlarini namoyon etishda barcha shart-sharoitlarni yaratish va b.

Bugungi kunda O'zbekistonning jahon hamjamiyatida madaniyatlararo muloqotni o'rnatish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlikda faoliyat yuritmoqda. Shu orqali jahon xalqlariga milliy ideosferamiz va madaniyatimizni tanishtirishga muvaffaq bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, bunda BMTning ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkiloti YUNESKO bilan xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirish, umuminsoniy va milliy merosimizni asrab-avaylash sohasida olib borilayotgan tadbirlar buning isbotidir.

2001-yilda YUNESKO davlatlar va nohukumat tashkilotlari o'tasida mazkur masalaga bag'ishlangan ijtimoiy so'rov o'tkazib, 2003-yili Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga bag'ishlangan konvensiya qabul qilingan. Shu kunga qadar 88 mamlakatning ajdodlardan avlodlarga aslar osha o'tib kelayotgan 300 durdonasi - urf-odat, an'ana, bayram, taom, xalq og'zaki ijodi, qo'shiq, raqslari insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan³.

YUNESKO nomodiy merosining milliy ro'yxatida mamlakatimizning ko'plab obyektlari joy olgan bo'lib, shulardan Xivaning Ichan

² Ahmedova M. Falsafa. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat, 2006. -B.441.

³ [https://uzbekistan.lv/uz/ozbekiston-yunesko-tinchlik-va-ezgulik-yoldagi-hamkorlik// Tashrif: 14.02.2024](https://uzbekistan.lv/uz/ozbekiston-yunesko-tinchlik-va-ezgulik-yoldagi-hamkorlik//Tashrif: 14.02.2024)

qal'asi (1990), Buxoro (1993), Shahrisabzning tarixiy markazi (2000) hamda Samarqand (2001) – to'rtta eng qadimiy va ko'hna shaharlar YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, YUNESKOning mamlakatimiz va mintaqaga xos bo'lgan butunjahon nomoddiy madaniy merosi ro'yxatidan milliy mumtoz musiqa an'analaridan biri - Shashmaqom (2008), Surxondaryo viloyatining eng qadimgi etnografik manzilgohi - Boysun tumani madaniy makoni (2008), Farg'ona vodiysining an'anaviy ashulasi – Katta ashula (2009), milliy taomimiz "Palov madaniyati va urf-odatlari" va Sharq mamlakatlarining yangi yil bayrami – Navro'z (2009), o'zbek xalqining humoristik san'ati – Askiya (2014), o'zbek xalq raqsi – lazgi (2019) kabilalar ham insoniyat nomoddiy madaniy merosining ro'yxatidan joy olgan.

O'zbekistonning YUNESKO bilan madaniy sohadagi hamkorligini Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Kamoliddin Behzod singari buyuk alloma va davlat arboblarining tavallud kunlarining, Buxoro, Xiva, Samarcand, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent, Marg'ilon kabi tarixiy shaharlarning yubileyлari, xalqimizning durdona adabiy meroslari "Alpomish" dosoni, "Avesto" tarixiy yozma yodgorligi hamda Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixiy yubileyлaring hamkorlikda katta tantana bilan o'tkazilganligi misolida ham ko'rishimiz mumkin⁴.

Bugun YUNESKO O'zbekistonning nomoddiy va merosini jahon

svilizatsiyasi madaniyatiga qo'shgan hissasini e'tirof etilishida beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Bu madaniyatlararo muloqot jarayonida mamlakatimiz jahon xalqlari bilan o'zining munosib pozitsiyasiga ega bo'lib borib, O'zbekiston YUNESKOning bunday strategik faoliyatini qo'llab-quvvatlab, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish borasida tashkilotning ko'plab xalqaro hujjatlarini ratifikatsiya qilib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston YUNESKOning 2001-yil noyabrda qabul qilingan butun dunyoda madaniy xilma-xillikni saqlash va targ'ib qilishga yordam beradigan "Madaniy xilma-xillik to'g'risida Umumjahon deklaratsiyasi"ga qo'shilgan. Mazkur deklaratsiya madaniy xilma-xillikni tan olish, insoniyat birligini anglash va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ideosferasi o'z taraqqiyoti jarayonida milliylik va umuminsoniylikning dialektik aloqadorligini taqozo etadi. Shuning uchun ham milliylik va umuminsoniylikni bir-biridan ayro holda ham, birini ikkinchisiga teskari qo'yib ham bo'lmaydi. Bu madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi katta yo'qotishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shunday ekan, jamiyat ideosferasini shakllantirishda umuminsoniylik va milliylikning dialektik aloqadorligini saqlab qolishi va uning rivojlanishiga xizmat qilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

⁴ <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz/> Tashrif: 14.02.2024

MUHAMMAD SHAYBONIYXON

Raya Ro'ziyevna Nurqulova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada XV asrning oxirlarida Mavarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Shayboniyxon tomonidan Mavarounnahr va Xurososning istilo qilinishi, Shayboniyalar davlatining tashkil topishi va uning davlatchiligidan tarixida tutgan o'rni manbalar asosida yoritib berilgan.

Аннотация: В этой научной статье описывается общественно-политическое положение в Мавороуннахре и Хурасоне в конце XV века, завоевание Мавороуннахра и Хурасона со стороны Шайбонийхана, формирование Шайбонийского государства и его место в истории государства.

Abstract: This scientific article describes the socio-political situation in Mavarounnahr and Khorasan at the end of the XV century, the conquest of Mavarounnahr and Khurasan by Shayboniykhan, the formation of the Shaybonian state and its place in the history of the state.

Kalit so'zlar: mustaqillik, sulolalar tarixi, Shayboniyxon, Abdullanoma, ko'chmanchi o'zbeklar, Abdulxayrxon, Temuriyzodalar, Mavarounnahr, Xuroson, Shayboniyxonning o'limi, Shayboniyxonning davlatchiligidan tarixida tutgan o'rni.

Ключевые слова: независимость, история династии, Шайбани-хан, Абдулланаме, Кочманчи-узбеки, Абдулхаир-хан, Темуризодалар, Маворунахр, Хорасан, смерть Шайбани-хана, место Шайбани-хана в истории нашей государственности.

Keywords: independence, the history of the dynasty, Shaibani Khan, Abdullah nameh, Comanche Uzbeks, Abulkhair Khan, Temurizodalar, Transoxiana, Khorasan, the death of Shaibani Khan, the place of Shaibani Khan in the history of our statehood.

Mustaqillik – o'zbek xalqining hayoti va milliy davlatchiligi tarixida tub burilish davrini boshlanishi bo'ldi. Tarixchilarimiz zimmasiga o'l kamiz tarixini xolisona va haqqoni yoritish, ungaadolat nuqtai nazaridan yondashish va baho berish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. O'zbekistonning qadimgi tarixi va madaniyati, o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, ilk shaharsozlik madaniyati, qadimgi madaniy aloqalar kabi mavzularga muhim e'tibor berilayotganligi ahamiyatga molikdir.

O'zbekiston tarixidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi yozma manbalar va hujjatlarni yangi asoslarda o'rganish va uni targ'ib qilishda, o'zbek davlatchiligi tarixida, uning madaniy rivojlanishida sulolalar boshqaruvi, hukmdor sulolalarning vakillari alohida o'rni tutadi.

Tarixni xolis baholash va to'g'ri yozish, ayniqsa, XXI asrda voyaga yetayotgan farzandlarimizning ma'naviy barkamolligi, o'tmishdagi buyuk bobokalonlarimiz haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lislari ham muhim hisoblanadi.

H.T.al-Buxoriy o'zining "Abdullanoma" (Sharafnomai shohiy) asarida yozganidek:

"Tarixlarni o'rganishdan keladigan foydaning qisqacha bayoni shuki, (kishilar) asrlar, davrlar va yillar davomida o'tgan oliy xoqonlar va qudratli sultonlarning xususiyatlarini to'liq mulohaza qiladilar va (ular) xususida yaxshi aql yuritadilar".

Shu jihatdan ham, davlatchiligidan tarixida muhim o'rni egallagan sulolalar tarixini haqqoni o'rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mamlakatimiz tarixida muayyan iz qoldirgan, yurtimiz mustaqilligi va markazlashgan hokimiyat o'rnatisht uchun elimizda ma'naviy tarzda joriy bo'lib kelayotgan, mas'habimizni saqlab qolish uchun tinimsiz kurash olib borib, shunday janglardan birida shahid bo'lgan, qariyb 100 yil davom etgan Shayboniyalar davlatining asoschisi, mohir lashkarboshi va ajoyib she'r va g'azallar mualifi, sulolaboshi Muhammad Shayboniyondir.

Shayboniyxon va shayboniyzodalarining davlatchiligidan tarixidagi buyuk xizmatlarini nazarda tutib, ularning faoliyatiga haqqoni baho berishimiz kerak. Shayboniyxon va uning avlodlari bo'lgan hukmdorlar davlatchiligidan tarixida o'zining munosib

¹ Ҳ.Т.Ал-Бухорий. Абдулланома. Биринчи китоб. Т.: Шарқ, 1999. - Б. 18.